



INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOPETENSIYANI INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI

*Nusratullayeva Farzona Izzatulloyevna
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 38- maktab*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ hompetensiyani integratsiya qilish haqida fikir yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy til, ta'lif, innovatsiya, kopetensiya, " Ta'lif to'g'risida "gi Qonun, " Ta'lif muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi qaror.

Bugungi kunda, dunyoda ingliz tilini o'qitish metodikasi tizimida turli metodlardan foydalaniladi. O'qitishdagi har bir metodlar o'quvchi va talabalarga o'qish jarayonida yengillik yaratish maqsadida yaratiladi. Yurtimizda ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan o'quvchi yoshlarning Ingliz tili va boshqa chet tillarini o'rghanishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining " Ta'lif to'g'risida "gi Qonunini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, " Ta'lif muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi qarorlari yurtimizda chet tillarga o'qitishning kompleks tizimini yaratish, va uning sifatini oshirish eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda ushbu qarorlarni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha bir nechta ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, har bir oliy ta'lif muassalarida xorijiy hamkorliklar yo'lga qo'yilgan va dars jarayonlariga xorijlik yetakchi professor-o'qituvchilar jalb qilinmoqda. Bu esa talabalarda ingliz tilini o'rghanishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi tabiiy. Talabalarning kommunikativ kompetentligini oshirishda CLT (Communicative language Teaching) metodining o'rni beqiyos. Ushbu metod XX asrning 70-yillarda Angliyada vujudga keldi va til o'qitish tizimiga o'ziga xos yangilik bo'lib kirib keldi.

Bunga sabab, endi o'quvchilar til o'rghanish jarayonida nafaqat grammatika, balki so'zlashuv imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu metod bir tilda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. G'arb mamlakatlarida CLT metodi tezlik bilan tarqalib shuhrat qozondi, ammo bu holat Osiyo mamlakatlarida odatda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab esa, Osiyo



mintaqalari mamlakatlarida CLTni tatbiq etishda muvaffaqiyatga erisha olmagan omillar qatoriga ba'zi mamlakatlarda qo'llaniladigan sinovdan o'tgan ta'lim tizimi, ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuv va o'qituvchilarning CLT yondashuviga salbiy munosabati kiradi.

Til o'qituvchilari CLT yondashuvini noto'g'ri qabul qilishiga asrlar davomida saqlanib kelgan eskicha qarash ustoz-shogird nazariyasidir. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, o'quvchilarida kommunikativ kompetentsiya grammatik, nutqiy, strategik va ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning turli o'lchovlarini o'z ichiga olgan ushbu "kommunikativ kompetentsiya" atamasining ta'rifi haqida o'qituvchilarni ko'proq xabardor qilinishi lozim.

Ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida kommunikativ kompetentsiya haqidagi bu bilim va xabardorlik juda muhim sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy ilm dargohlarida ushbu metoddan keng qo'llaniladi va ushbu metodning ilmiy muvaffaqiyati ham to'liq isbotlangan. Kommunikativ til o'qitish metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari. CLT (kommunikativ til o'qitish) metodida kommunikativ kompetensiyaga erishishga qaratilgan.

Xulosa o'rnida, Kommunikativ kompetentsiya til o'rganishning uchta yo'nalishi bo'yicha kompetentsiya sifatida tavsiflanadi, bular grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalardir. Strategik kompetentsiya bu suhbatda talabalar o'zini muvaffaqiyatli ifoda eta olish va muloqotning buzilishiga sabab bo'ladi

Adabiyotlar

1. Zaripova R.A. O'zbek o'rta maktablarida chet tilni o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari. –Toshkent, 1979.
2. Zagvyazinskiy V.I. Metodologiya i metodika didakticheskix issledovaniy. – Moskva: Pedagogika, 1982.
3. Zimnyaya I.A. Psixologicheskaya xarakteristika slushaniya i govoreniya